

BOSHLANGICH TA LIMGA QO YILAYOTGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Nasirdinova Dilshoda Sobirovna

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Sobirova Nasima Yaxyoevna

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasining" ahamiyati va ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan zamonaviy yondashuvlar hamda o'quvchilarning o'qish va tushunish darajasini oshirish yuzasidan fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim konsepsiysi, ta'lim mazmuni, zamonaviy yondashuvlar, bilish, kompetensiya, o'qish va tushunish darajasi, o'qish savodxonligi.

O'qish savodxonligini oshirish o'qish darslarini tashkil etilishi bilan bo'gлиq. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rinn tutadi. Nogaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'lismiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. Oqish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari kozda tutilgan o'quv-biluv konikmamalakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda «O'qish kitobi» darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'lismiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Respublikamizda "Boshlang'ich ta'lim konsepsiysi" hamda boshlang'ich ta'lim uchun o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualarda o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonlikni rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, o'qituvchilarni o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "yosh avlodning ijodiyl va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash hamda ro'yobga chiqarish" kabi muhim vazifalar belgilab berildi[1]. Bu esa, o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tayanch kompetensiyalarini tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

O'qish savodxonligi - shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir[2].

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'rganiladigan asarlarning mavzu doirasini ancha keng bo'lib, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqlol va ma'naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan[3].

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqeasi - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'imasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi. Ta'kidlash joizki, o'quvchilarning

o'zlarini ham savol tuzishga o'rgatishlozim. K.D.Ushinskiy qayd etganidek, to'g'ri qo'yilgan masalaning o'zi yarim javobdir. Matn yuzasidan savol tuzishda o'quvchining dars mavzusi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor berishi asarda tasvirlangan voqeasi-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni bilib olishga, hayotiy xulosalar chiqarishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham matn yuzasidan savol tuzish o'quvchini ongli va tushunib o'qishga yo'llaydi. Uning o'ziga xos xususiyatini o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish orqali dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqlol, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqlol, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularini uyg'otishdir.

Ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yilayotgan xalqaro baholash talablari bo'yicha o'quvchilarning quyidagi bilish darajalari baholanadi:

ERKIN VA RAVON O'QISH

Matn ichidagi ma'lumotlarni olish va foydalanish;

Tegishli matnni qidirish va saralash;

So'zma-so'z ma'nosini tasvirlash;

Shakl va mazmun ustida mulohaza yuritish;

Sifat va ishonchliklarni baholash;

Qarama-qarshiliklarni aniqlash va qayta ishlash;

Xulosalarni umumlashtirish va hosil qilish.

Ushbu bilish darajalari asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlay olish, xulosalar chiqarish, taqqoslash, bir yoki bir nechta matnni to'liq va batafsil tushunish, bir nechta matnlardan ma'lumotlarni birlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 6-son, 70-modda.
2. Qurbanova Maftuna, Umumiy o'rta ta'lim mакtablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish ahamiyati // Xalq ta'limi, 2020. 3-maxsus son, 29-33 bet.
3. Qurbanova Maftuna, Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works // Экономика и социум, 2020. №6(73), с 432-437.